

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI KENGASHI YIG'ILISHINING
BAYONI**

Qarshi shahri

3-son

2024-yil 06-noyabr

Kengash a'zolari - 45 nafar

Qatnashdilar - 36 nafar

Qatnashmadi - 9 nafar (sababli)

KUN TARTIBI:

1. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Hay'at kengashi majlis qarorlarini bajarish borasida universitet jamoasi oldidagi vazifalar to'g'risida
2. Universitet Kengashining yangi tarkibi, ish rejasini tasdiqlash to'g'risida
Rektor D.Nabiyev
3. Universitet rektorining 2024 yil 9 oktabrdagi 665-X-sonli buyrug'i ijrosi bo'yicha hisobot

O'quv ishlari bo'yicha prorektor A.Xolmurodov

4. Qarshi davlat universitetida 2024 yil tarmoq jadvalida kiritilgan vazifalarning bajarilishi bo'yicha tahliliy hisobot

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor I.Bekpulatov

5. Talabalarni turar joy bilan ta'minlash holati to'g'risida
Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor O.Qo'ziyev

Turli masalalar.

6. Universitetning vakant (bo'sh) kafedra professori, dotsent, katta o'qituvchi, o'qituvchi-assistent, o'qituvchi-stajyor lavozimlariga tanlov masalalari
Kengash kotibi G.Tojiyeva
7. Kafedra professor-o'qituvchilarini OAKga professor, dotsent ilmiy unvoniga tavsiya etish to'g'risida
8. Professor-o'qituvchilarga ijodiy ta'til berish to'g'risida
9. Tayanch doktorantura, doktorantura va stajyor-tadqiqotchilik institutiga kirish imtihon savollari va dasturini tasdiqlash to'g'risida
10. 2024-2025 o'quv yilida universitetga qabul qilingan magistratura mutaxassisliklari 1-kurs talabalariga ilmiy rahbarlar biriktirish hamda ularning magistrlik dissertatsiya mavzularini tasdiqlash to'g'risida
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor I.Bekpulatov
11. Universitet professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan va nashr ruxsatnomasiga ega bo'lgan darslik va o'quv qo'llanmalarni universitet hisobidan nashr ettirish to'g'risida
- 11.1. 2024/2025 o'quv yilida turdosh kafedralarning o'zaro o'quv yuklamalarining almashinuvini tasdiqlash to'g'risida
- 11.2. 2024/2025 o'quv yilida Xotin-qizalr masalalari bo'yicha dekan maslahatchilari o'quv yuklamalarini qisqartirish to'g'risida

bajarmagan kafedra mudirlari va tegishli professor-o'qituvchilarga belgilangan tartibda jazo choralari ko'rilishi to'g'risida ogohlantirilsin;

6. Ushbu qaror ijrosi nazorat qilish I.Bekpulatov zimmasiga yuklatilsin.

5-masala. Talabalarni turar joy bilan ta'minlash holati to'g'risida

Ushbu masala yuzasidan Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor O.Qo'ziyev axboroti tinglandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Kengash

QAROR QILADI:

1. Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor O. Kuziyevning Talabalarning turar joy bilan ta'minlanish holati to'g'risida bergan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qarshi davlat universitetida 2024-2025 o'quv yilida talabalarni turar joy bilan ta'minlash ishlarining bajarilish holati qoniqarli deb xisoblansin.

3. Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor (O. Kuziyev), Yoshlar bilan ishlash, Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish bo'limlari boshliqlari (N. Pardaqulov, Sh. Akramov) va fakultet dekanlariga:

- Talabalarni turar joy bilan ta'minlash ishlarini doimiy muvofiqlashtirish, Talabalar turar joylarida va ijara xonadonlarida muntazam ravishda ijtimoiy-ma'naviy holatni o'rganish va kunlik monitoring olib borish bo'yicha aniq manzilli chora-tadbirlarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

- talabalarining darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida doimiy ravishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, uchrashuvlar va tanlovlar o'tkazib borish vazifalari yuklatilsin.

4. 2024-2025 o'quv yili uchun Talabalar turar joylarida yashovchi ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalarni moddiy qo'llab-quvvatlash maqsadida yuqorida keltirilgan ijtimoiy mezonlar asosida da'vogar bo'lgan 231 nafar talabalarga talabalar turar joyi oylik to'lovlarini to'lashda imtiyozlar berish bo'yicha taklif ma'qullansin. (Ruyxat ilova qilinadi).

5. Ushbu Kengash qarori ijrosini nazorat qilish Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor O. Kuziyev zimmasiga yuklatilsin.

Turli masalalar ham ko'rib o'tildi.

Kengash raisi

D.Nabiyev

Kengash kotibi

G.Tojiyeva

